

Samarqand viloyatida Demografik holat

2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni **4 379,8** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,9** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni **106,3** ming nafarni, vafot etganlar **19,7** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **86,6** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni **13,7** ming kishini va ko'chib ketganlar soni **18,0** ming kishini, qayd etilgan nikohlar **31,7** mingtani, nikohdan ajralishlar **4,8** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

4 379,8 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

106,3 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

19,7 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar

13,7 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar

18,0 *ming kishi*

Nikohlar soni

31,7 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

4,8 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Samarqand viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra **4 379,8** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **82,3** ming kishiga yoki **1,9** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 597,0** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,5** %), qishloq joylarda esa **2 782,8** ming kishi (**63,5** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **2 172,4** ming kishini (**49,6** %), erkaklar esa **2 207,4** ming kishini (**50,4** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	4 297,5	4 379,8	101,9
Samarqand sh.	595,8	605,8	101,7
Kattaqo'rg'on sh.	95,9	97,0	101,1
tumanlar:			
Oqdaryo	177,2	180,9	102,1
Bulung'ur	206,9	211,0	102,0
Jomboy	194,1	198,4	102,2
Ishtixon	282,2	288,1	102,1
Kattaqo'rg'on	299,8	305,4	101,9
Qo'shrabot	144,4	146,9	101,7
Narpay	231,6	235,4	101,6
Payariq	279,8	285,0	101,9
Pastdarg'om	392,1	400,0	102,0
Paxtachi	154,5	156,7	101,4
Samarqand	278,6	283,6	101,8
Nurobod	165,8	168,7	101,7
Urgut	572,6	585,8	102,3
Toyloq	226,2	231,1	102,2

Samarqand viloyatida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **261,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **4,9** kishiga ortgan (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **256,3** kishi).


Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni



III. Tug'ilganlar va vafot etganlar


Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **106,3** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **24,5** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **4,6** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **19,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,8** ming nafarga ko'paygan.



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **106,3** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **54,9** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,6%**), qiz bolalar soni **51,4** ming kishini (**48,4%**) va shahar joylarida **33,5** ming kishini (**31,5%**), qishloq joylarida **72,8** ming kishini (**68,5%**) tashkil etdi.


Viloyatda vafot etganlar soni **19,7** ming kishini, shundan erkaklar **10,9** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,3%**), ayollar **8,8** ming kishini (**44,7%**) va shahar joylarida **7,0** ming kishini (**35,5%**), qishloq joylarida **12,7** ming kishini (**64,5%**) tashkil qildi.



IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **31,7** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,3** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming birlikka ko'paygan.


Nikohdan ajralishlar soni **4,8** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming birlikka ko'paygan..



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **31,7** ming birlikni, shundan shahar joylarida **10,2** ming birlikni (**32,2%**), qishloq joylarida **21,5** ming birlikni (**67,8%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **4,8** ming birlikni, shundan shahar joylarida **2,1** ming birlikni (**43,7%**), qishloq joylarida **2,7** ming birlikni (**56,3%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik




V. Aholi migratsiyasi

2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **13 708** kishini, ko'chib ketganlar jami soni **17 975** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni
	Jami	Jami
Samarqand viloyati	13 708	17 975
Samarqand sh.	5 368	3 895
Kattaqo'rg'on sh.	583	817
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	598	592
Bulung'ur	472	853
Jomboy	466	451
Ishtixon	467	914
Kattaqo'rg'on	576	1 310
Qo'shrabot	390	907
Narpay	409	968
Payariq	391	1 302
Pastdarg'om	899	997
Paxtachi	764	1 411
Samarqand	1 357	1 272
Nurobod	234	656
Urgut	351	1 149
Toyloq	383	481

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
K.Tosheva
55 701 80 00 (3070)

Manzil:
